

DORIVOR O'SIMLIK- TOPINAMBUR (HELIANTHUS TUBEROSUS)

Usmonova Gulshod Ibrohimovna

O'qituvchi Buxoro davlat universiteti, Buxoro usmonovagulshod@gmail.com

Qosimova Sevinch Feruz qizi

Talaba Buxoro davlat universiteti. Buxoro sevinchqosimova1308@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada dorivor va oziq-ovqat ahamiyatiga ega bo'lgan *Helianthus tuberosus* (Topinambur) o'simligini yetishtirishda mineral o'g'itlash tizimining samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida azot (N), fosfor (P) va kaliy (K) elementlarining turli nisbatlari o'simlikning morfofiziologik ko'rsatkichlariga, poya balandligiga, barg sathining shakllanishiga va hosildorlikka ta'siri o'rganilgan. Ayniqsa, mineral elementlarning tugunaklarda to'planadigan asosiy biologik faol modda – inulin miqdoriga ko'rsatadigan korrelyatsion bog'liqligi yoritilgan. Maqolada optimal o'g'itlash me'yorlarini qo'llash orqali tuproq unumdorligini saqlash va sifatli xomashyo olish bo'yicha agrotexnik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *Helianthus tuberosus*, topinambur, mineral o'g'itlar, azot, fosfor, kaliy, inulin, hosildorlik, vegetatsiya, dorivor o'simlik, agrotexnologiya.

KIRISH

Dorivor o'simliklar- odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarini oldini olish, hamda oziq-ovqat, parfumeriya va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklarga nisbatan aytiladi. Hozirgi kunga qadar dorivor o'simliklarning 10-12 mingga yaqin turlari aniqlanib kelingan. Dorivor o'simliklar shu bilan birga, dorivor o'tlar ham deb yuritiladi, qadimgi davrlardan beri an'anaviy tibbiyot amaliyotida topilgan va ishlatila boshlangan.

Dorivor o'simliklar insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, ulardan foydalanish tarixi yozma manbalar paydo bo'lishidan ancha oldingi borib taqaladi.

Dorivor o'simliklar- tarkibida kasalliklarni davolash yoki oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan bipologik moddalar (alkoloidlar, glikozidlar, vitaminlar, efir moylari) mavjud o'simliklar guruhidir. Bugungi kunda jahon farmasevtikasi sanoatida ishlab chiqarayotgan dori vositalarining 30-40% dan ortig'i aynan xomashyosidan olinadi. O'zbekiston dorivor o'simliklar sohasini tartibga solish va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bu borada eng muhim hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-sonli "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qaroridir.

Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 mingturi bor. 1000 dan ortiq o'simlik turlarining kimyoviy, farmokologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 577 turi mavjud. Shulardan hozirgi vaqtda 250 turi ilmiy tabobatda ishlatilmoqda. Dorivor o'simliklarni 2 xil tavsiflash qabul qilingan: 1. Ta'sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab - alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar; 2. Farmokologik ko'rsatkichlariga qarab - tinchlantiruvchi, og'riq qoldiruvchi, uxlatuvchi,

shuningdek, yurak-tomir tizimiga ta'sir qiluvchi, markaziy nerv tizimini qo'zg'atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqa dorivor o'simliklar.

Dorivor o'simliklar uchun o'rmon xo'jaligi yerlari va zaxira yerlarni ijaraga berilishi soddalashtirilgan. O'zbekiston dorivor o'simliklar, jumladan topinambur yetishtirish endilikda shunchaki dehqonchilik emas, balki farmasevtika mustaqilliga ta'minlovchi davlat ahamiyatidagi sohadir.

Dorivor o'simlik – Topinambur (*Helianthus tuberosus*)ning botanik tasnifi va ahamiyati. Ildiz tizimi: Kuchli rivojlangan, asosiy ildizlar , popuk ildiz biroq yer osti poyalari- stolonlar uchida shakli noksimon , urug'simon yoki aylana bo'lgan tugunaklar hosil qiladi. Stolonlarning uchida oziq moddalarga (inulin) boy tugunak shakllanadi.

Bo'yi: 1,5-2 metr, bazan 4 metrgacha. Poyasi serbarg, g'adir-budur tukli yuqoriga qarab shoxlangan.

Barglari oddiy, yirik, qarama-qarshi (poyasining pastki qismida) va navbat bilan joylashgan (yuqori qismida), sertuk, uzun bandli, barg plastinkasi tuxumsimon, chetlari arrasimon qirqilgan.

Gullari savatchaga to'plangan bo'lib, yakka-yakka joylashgan. Savatchaning o'rtasida naychasimon chetlarida soxta tilsimon gullar joylashgan. Gullarning rangi tiniq to'q sariq rangda bo'ladi. Bu o'simlik urug' bermaydi. Iyul-avgust oylarida gullaydi

Geografik tarqalishi: Vatani asosan Shimoliy Amerika. Hozirgi kunda Topinambur Amerika, Fransiya, Angliya Norvegiya, Shvesiya, Rossiya, Ukraina va O'rta Osiyoda ekilib kelinmoqda.

Tibbiyotda topinambur tarkibidagi inulin moddasi sovuqqa chidamliligini ta'minlaydi. Shimoliy viloyatlarda ham yetishtirish imkonini beradi. Yer ustki qismida 6 gradusli sovuqqa ham bardosh bera oladi. Tugunagi muzlagani bilan erib yana o'z holiga kelishiga yordamberadi. Bu o'simliklarning asosiy zaxira uglevodidir. Inulin faol sorbent hisoblanadi, u organizmlarda katta miqdorda toksik va ballast moddlarni ishlab, keyin chiqarib ketadi, ular esa ichkariga ovqat bilan kiradi, ichakda hazm bo'lishida hosil bo'ladi. Inulin- D-fruktoza qoldiqlaridan tashkil topgan polimer bo'lib, u glyukoza darajasini ko'rsatmasdan energiya beradi.

Inulin me'da ichak trakti (motorika va peristaltika) harakat faolligi stimullaydi.

Inulin va mayda fruktoza tayoqchalari (inulin fagmanti) aniq o't haydovchi xususiyatga ega, u esa jigardan ot qovug'idan 12 barmoqli ichakka o't oqishiga asoslangan, bu esa ichakni tozalashini yaxshilaydi. Qandli diabetda inulin – Topinamburdagi eng muhim moddadir. Bu tabiiy prebiotik bo'lib, qonda glukoza darajasini me'yorlashtiradi. Foydasi: Qondagi shakarni keskin oshirmaydi. Qo'llanilishi: Quruq kukun (inulin), xom holda salatlarda sharbat holida. Ovqat hazm qilish uchun- Topinambur ichak florasini yaxshilaydi. Ichakda foydali bakteriyalar ko'payishi uchun muhit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ahmedov O', A. Abzalov, M. Yo'chiyev , D. Mustafakulov : Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ekologiya “ darslik Toshkent-2018-yil “Tafakkur bo'stoni” 64-65- betlar.

2. Ayupov .R va b. "Dorivor o'simliklardan foydalanish" Toshkent-2-15. 135-betlar.
3. . Usmonova, Gulshod Ibrohimovna, and Gulruksor Azamatovna Ochilova. "TUPROQNING BIOLOGIK FAOLLIGIDA MIKROORGANIZMLAR ROLI." Academic research in educational sciences 3.1 (2022): 63-67.
4. Usmonova G. I., Xo'Janiyozova B. X., Ochilova G. A. TUPROQNING BIOLOGIK FAOLLIGIDA MIKROORGANIZMLAR ROLI AZOTOBAKTERNING XUSUSIYATLARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 139-143.
5. Usmonova G. I., Ochilova G. A. TUPROQNING BIOLOGIK FAOLLIGIDA MIKROORGANIZMLAR ROLI.
6. Ibrohimovna U. G., Abduvohidovna G. G. The Effect OF Mineral Elements on the Growth OF Indoor Plants //World Bulletin of Public Health. – 2022. – T. 51. – C. 48-49.
7. Muxammedjonovna G. S., Ibrohimovna U. G. Biological End Ecological Properties OF Oil Plants //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – T. 12. – №. 3. – C. 673-676.